



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 07 | pp. 7-15 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

ENERGETIKA SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALAR TAHLILI



Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida energetika sohasida amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining rivojlanish tendensiyalari, tarmoq va hududiy tarkibi hamda investitsiyalar hajmi tahlil qilingan. 2019-2024-yillarda energetika tarmog'iga jalb etilgan investitsiyalar, hududlar kesimidagi taqsimoti va asosiy strategik yo'nalishlari baholangan. Tadqiqot natijasida energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish, investitsion faollikni oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, energetika, investitsiya, infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh elektr stansiyasi, shamol elektr stansiyasi, energetika xavfsizligi, xususiy investitsiyalar, hududiy rivojlanish.

Аннотация. В статье проведен анализ тенденций развития проектов государственно-частного партнерства в энергетической отрасли Республики Узбекистан, их отраслевой и территориальной структуры, а также объемов привлеченных инвестиций. Дана оценка динамики инвестиционных проектов в энергетике за 2019-2024 годы. Разработаны научно обоснованные рекомендации по совершенствованию механизмов государственно-частного партнерства, привлечению частных инвестиций и развитию возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, энергетика, инвестиции, инфраструктура, возобновляемая энергетика, солнечная электростанция, ветровая электростанция, энергетическая безопасность, частные инвестиции, региональное развитие.

Annotation. This article analyzes the development trends of Public-Private Partnership (PPP) projects implemented in Uzbekistan's energy sector, including their sectoral and regional structure as well as investment volumes. Based on data from the Public-Private Partnership Development Agency, the World Bank, and other official sources, the study evaluates the dynamics of energy-sector PPP investments during 2019-2024. The research proposes scientifically grounded recommendations aimed at improving PPP mechanisms, increasing private investment participation, enhancing regional energy infrastructure, and accelerating the development of renewable energy projects.

Key words: Public-private partnership, energy sector, investment, infrastructure, renewable energy, solar power plant, wind power plant, energy security, private investment, regional development.

Kirish

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, energetika xavfsizligini mustahkamlash hamda elektr energiyasiga ortib borayotgan talabni qondirish davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi strategik ahamiyat kasb etib, davlat va xususiy sektor moliyaviy resurslarini samarali integratsiyalash, yirik infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning muhim institutsional vositasiga aylandi. Ayniqsa, energetika tarmog'ida elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda DXSh mexanizmining roli tobora ortib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda energetika sohasini tubdan isloh qilish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng joriy etish hamda xususiy kapital ishtirokini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi "Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-166-son Farmoni [1]asosida energetika tarmog'ida institutsional islohotlarni jadallashtirish, elektr energiyasi bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda xorijiy va mahalliy xususiy investitsiyalarni faol jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Mazkur Farmon doirasida quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish, issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish, elektr uzatish infratuzilmasini takomillashtirish va energetika obyektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirishga qaratilgan yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu esa energetika sohasida davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy samaradorligini baholash, investitsiyalar tarkibini tahlil qilish hamda hududlar kesimida loyihalarning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Patrick W. Schmitz davlat-xususiy sheriklikni to'liq bo'lmagan shartnomalar (incomplete contracts) va assimetrik axborot sharoitida tahlil qilib, DXShning ustunligi hukumatning loyiha boshqaruvida faol ishtirok etishi orqali xususiy pudratchining xarajatlari va loyiha bo'yicha axborotiga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan izohlanishini asoslaydi. Muallifning ta'kidlashicha, ushbu axborot ustunligi loyihaning samaradorligini oshirishi mumkin, biroq ayrim holatlarda noto'g'ri boshqaruv qarorlari va qo'shimcha tranzaksiya xarajatlari tufayli DXShning afzalliklarini kamaytirishi ham mumkin [2]. Olimlar tomonidan davlat-xususiy sheriklikda davlat moliyalashtirish mexanizmining innovatsion rivojlanishga ta'sirini qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, ijtimoiy iqtisodiyot subyektlar barqaror rivojlanish va ijtimoiy qiymat yaratishga yo'naltirilgan loyihalarda yuqori natijalarga erishsa, xususiy korxonalar texnologik innovatsiyalarni keng ko'lamda joriy etishda ustunlikka ega. Mualliflar davlat mablag'larini taqsimlashda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini uyg'unlashtirish davlat-xususiy sheriklik loyihalarining innovatsion salohiyati va barqarorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydilar [3]. Mualliflar DXSh loyihalarining muvaffaqiyati nafaqat texnologik yechimlarga, balki oshkoralik, hisobdorlik, jamoat manfaatlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, ishtirokchilik va ishonch kabi "jamoat qadriyatlarini (public

values)“ni ta’minlashga ham bevosita bog’liq ekanligini asoslaydilar. Tadqiqotda raqamli transformatsiya loyihalarida davlat va xususiy sektor manfaatlari o’rtasida muvozanatni saqlash, samarali boshqaruv va institutsional hamkorlikni kuchaytirish davlat-xususiy sheriklikning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etilgan [4]. Tadqiqot natijalariga ko’ra, davlat-xususiy sheriklik investitsiyalari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik (R&D) xarajatlari hamda siyosiy hamkorlik qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni sezilarli darajada rag’batlantiradi. Mualliflar siyosiy barqarorlik, xalqaro hamkorlik va uzoq muddatli investitsiyalarni qo’llab-quvvatlovchi institutsional muhitni shakllantirish energiya sohasidagi DXSh loyihalarining samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim omili ekanligini ta’kidlaydilar [5]. Mualliflarning ta’kidlashicha, shaffoflik jamoatchilik ishonchi va hisobdorlikni mustahkamlasa-da, tijorat siri va investor manfaatlarini himoya qilish zarurati ayrim axborotlarni cheklashni talab etadi. Shuning uchun, davlat-xususiy sheriklikni boshqaruvchi vakolatli organlar axborotlarni oshkor etishning muvozanatlashgan mexanizmini joriy etishi, hisobdorlikni takomillashtirish hamda investorlar va davlat manfaatlari o’rtasida institutsional muvozanatni ta’minlashi zarur [6].

Uzoq muddatli investitsiyalarni samarali jalb qilish mexanizmi hisoblangan davlat xususiy sheriklikni amalga oshirmasdan turib, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ijtimoiy-bozor infratuzilmasini yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish mumkin emas. Zamonaviy davlat boshqaruv yo’nalishlari va biznesni boshqarish iqtisodiyotning yetakchi va strategik tarmoqlarini ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga yo’naltiriladi. Bozor munosabatlari shakillanayotgan mamlakatlarda davlat va korporativ tuzilmalar o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi [7]. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining kuzatilayotgan sekinlashuvi joriy tendensiyalari davlatlar investitsion imkoniyatlarini qayta baholash va istiqbolli investitsiya siyosatini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. DXSh davlatning iqtisodiyotga yo’naltiradigan investitsiya resurslarini kamaytirish bilan bir qatorda iqtisodiyotda yangi biznes sub’ektlarini paydo shakillanishiga zamin yaratadi. Shuning uchun DXSh infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda keng tarqalgan instrumentlaridan biri sanaladi. DXSh ikkala tomonlar uchun o’zaro manfaatli bo’lib, pirovardida aholi farovonligini oshirishiga qaratilgan [8].

Yu.Xadjayeva tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda DXSh bo’yicha investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish mexanizmi dastaklari o’rganilgan, tadqiqotchining fikricha, davlat-xususiy sheriklikning muhim afzalliklaridan biri loyihalarni aniq belgilangan bosqichlar asosida amalga oshirishdir. Ilk bosqichda loyiha tayyorlanadi, ikkinchi bosqichda loyiha tafsilotlari ko’rsatilgan holda, qayta ko’rib chiqiladi, uchinchisidan loyiha amalga oshiriladi, to’rtinchisida bajarilgan ishlar monitoringi amalga oshiriladi [9]. J.Tohirov tomonidan DXShning xususiy sektor va davlat manfaatlarini himoya qilishligi, byudjet daromadlarini oshirish bilan birglikda ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishdagi ahamiyati taxlil etilgan. Uning fikricha “davlat va xususiy sheriklikdan faqat xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar) bilan birgalikda davlat va aholi ham manfaatdordir [10].

Albatta, yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtiradigan bo'lsak, davlat-xususiy sheriklik zamonaviy iqtisodiyotda davlat va xususiy sektor resurslarini samarali integratsiyalash, uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda asosan davlat-xususiy sheriklikning shartnomaviy munosabatlari, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, jamoat qadriyatlarini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik masalalari atroflicha yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli va kompleks yondashuvlariga asoslangan usullardan foydalanildi. Jumladan, davlat-xususiy sheriklikning energetika sohasidagi rivojlanish tendensiyalarini baholashda mantiqiy va tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, dinamik qatorlarni tahlil qilish, iqtisodiy-statistik umumlashtirish hamda grafik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni jadal su'ratlar bilan rivojlanishi bilan bir qatorda iqtisodiyotning barcha sohalarida DXSh munosabatlari dinamik ko'rinishga ega bo'lib bormoqda. Buning natijasida iqtisodiyot sohalarida DXSh bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarning sonini ortib borishi bilan birga ularning YaIMdagi ulushi mos ravishda o'sib bormoqda.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi hamda tegishli vazirlik va idoralar ma'lumotlariga ko'ra, 2019-2022-yillarda O'zbekistonda jami 423 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 12,4 mlrd AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgan. Loyihalar soni bo'yicha eng katta ulush suv resurslarini boshqarish (157 ta), ta'lim (71 ta), ekologiya (69 ta) va sog'liqni saqlash (48 ta) tarmoqlariga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, investitsiya hajmi nuqtai nazaridan mutlaqo boshqacha tarkib shakllangan. 1-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2019-2022-yillarda eng yuqori investitsiya hajmi ta'lim sohasi hissasiga to'g'ri kelib, 270,0 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Keyingi o'rinlarni ekologiya (216,5 mln AQSh dollari), sog'liqni saqlash (76,7 mln AQSh dollari) hamda suv xo'jaligi (32,9 mln AQSh dollari) egallagan. Mazkur tarmoqlarda loyihalar sonining ko'pligi bilan bir qatorda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan kapital qo'yilmalar hajmining yuqoriligi kuzatiladi. Aksincha, soliq (20,0 mln AQSh dollari), madaniyat (13,3 mln AQSh dollari), bandlik (6,1 mln AQSh dollari), huquqni muhofaza qilish (3,0 mln AQSh dollari) va hunarmandchilik (1,0 mln AQSh dollari) yo'nalishlarida investitsiya hajmi nisbatan past bo'lib, ushbu loyihalar asosan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2019-2024-yillarda amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tarmoq tarkibi (mln. AQSh doll.)¹

2023-2024-yillarda esa mamlakatda DXSh siyosatining ustuvor yo'nalishlari sezilarli darajada o'zgarganligi kuzatiladi. Rasm ma'lumotlariga ko'ra, asosiy investitsiyalar energetika tarmog'iga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi loyihalar qiymati 28,9 mlrd AQSh dollariga yetgan. Bu ko'rsatkich 2019-2022-yillarda barcha ijtimoiy tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmidan bir necha o'n baravar yuqori bo'lib, mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb etishga ustuvor ahamiyat berilganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, kommunal xizmatlar sohasida 1 555,0 mln AQSh dollari, transport va logistika yo'nalishida 350,0 mln AQSh dollari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida esa 180,0 mln AQSh dollari miqdorida yangi DXSh loyihalar amalga oshirilgan. Bu esa DXSh mexanizmining dastlab asosan ijtimoiy xizmatlar va kommunal infratuzilmani rivojlantirish vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bosqichda uning strategik energetika va yirik infratuzilmaviy investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy mexanizmlaridan biriga aylanganligini ko'rsatadi. 2019-2024-yillar davomida energetika sohasida 26 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihasi amalga oshirilgan va imzolangan bo'lib, ularning umumiy qiymati 9,984 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi (2-rasm).

Mazkur ko'rsatkich energetika tarmog'ining mamlakatda davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirilayotgan eng yirik strategik yo'nalishlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Elektr energiyasiga bo'lgan ichki talabning yildan-yilga ortib borishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish zarurati hamda xususiy investitsiyalarni keng jalb etishga qaratilgan davlat siyosati ushbu tarmoqda DXSh loyihalarining jadal rivojlanishiga

¹ <https://www.imv.uz/announcements/category/elonlar> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

xizmat qilmoqda. 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, energetika sohasiga jalb qilingan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimoti notekis shakllangan. Eng yuqori ulush Sirdaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelib, bu hududda amalga oshirilgan DXSh loyihalarining umumiy qiymati 2 700 mln AQSh dollarini yoki 27,04 % ni tashkil etadi. Mazkur natija Sirdaryo viloyatida yirik issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish, yuqori quvvatli elektr ishlab chiqarish obyektlarini qurish hamda xususiy investorlar ishtirokidagi energetika loyihalarining yuqori konsentratsiyasi bilan izohlanadi. Keyingi o'rinlarda Buxoro viloyati (1 680 mln AQSh dollari yoki 16,83 %) hamda Navoiy viloyati (1 629 mln AQSh dollari yoki 16,32 %) joylashgan. Mazkur hududlarda quyosh va shamol elektr stansiyalari, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani ularning ulushi yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan.



2-rasm. 2019-2024 yillarda energetika sohasida amalga oshirilayotgan va imzolangan DXSh loyihalari hududiy tarkibi²

Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan loyihalar qiymati 1 460 mln AQSh dollarini tashkil etib, umumiy investitsiyalarning 14,62 % ini egallaydi. Toshkent viloyatida esa 1 020 mln AQSh dollari (10,22 %) miqdoridagi DXSh loyihalari amalga oshirilgan bo'lib, bu hudud elektr energiyasi ishlab chiqarish va uzatish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha muhim markazlardan biri hisoblanadi. Ushbu loyihalar doirasida 18 ta investitsiya bitimi va 1 ta DXSh shartnomasi imzolangan. Jumladan, Xalqaro Moliyaviy Korporatsiya ko'magida, Navoiy viloyati Karmana tumanida loyiha qiymati 100 mln AQSh doll. bo'lgan quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi investitsiya bitimi 25 yilga mo'ljallangan bo'lib 2019-yil 8-noyabrda imzolangan va ushbu stansiya 2021-yil 27-avgustda ishga tushirilgan.

² <https://www.imv.uz/announcements/category/elonlar> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Shuningdek, Navoiy viloyatining Nurota tumanida quvvati 300 MVt bo'lgan shamol stansiyasini, uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyaning elektr uzatish tarmog'ini qurish» investitsiya loyihasi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hududida 400 o'rinni TTJni qurish, Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hududidagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli Xatirchi tumanida joylashgan "Kattasoy" nasos stansiyasidan DXSh shartlari asosida foydalanishni alohida keltirishimiz mumkin.

Fransiyaning "Total Eren" kompaniyasi bilan Samarqand viloyati Nurobod tumanida loyiha qiymati 107 mln. AQSh doll, bo'lgan, quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi bo'yicha investitsiya bitimi 25 yilga mo'ljallangan bo'lib 2019-yil 13-sentabrda imzolangan va stansiya 2022-yil 24-mayda ishga tushirilgan. 2020-yil 20-yanvarda, Turkiyaning "Akse Enerji" kompaniyasi bilan Toshkent viloyati Qibray tumanida quvvati 240 MVt bo'lgan qiymati 150 mln. AQSh doll. bo'lgan bug'-gaz elektr stansiyasi qurilishi bo'yicha investitsiya bitimi 25 yilga mo'ljallangan loyiha imzolangan, va ushbu stansiya 2022-yil 14-yanvarda ishga tushirilgan.

Nisbatan kichik ulushga ega hududlar qatoriga Samarqand viloyati (457 mln AQSh dollari yoki 4,58 %), Jizzax viloyati (370 mln AQSh dollari yoki 3,71 %), Toshkent shahri (300 mln AQSh dollari yoki 3,00 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (263 mln AQSh dollari yoki 2,63 %) hamda Xorazm viloyati (105 mln AQSh dollari yoki 1,05 %) kiradi. Ushbu hududlarda asosan quyosh elektr stansiyalari, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda hududiy energetika infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilgan. 2-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori uchta hudud — Sirdaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlariga umumiy investitsiyalarning 60,19 % yoki 6,009 mlrd AQSh dollari to'g'ri keladi. Bu esa energetika sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining hududlar kesimida yuqori darajada konsentratsiyalashganligini hamda investitsiyalarning, avvalo, mavjud energetika infratuzilmasi rivojlangan va yuqori quvvatli elektr energiyasi ishlab chiqarish salohiyatiga ega hududlarga yo'naltirilayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, barcha 10 ta hudud bo'yicha o'rtacha investitsiya hajmi 998,4 mln AQSh dollarini tashkil etmoqda. Biroq amaldagi taqsimot tahlili ayrim hududlarda investitsiyalar hajmi o'rtacha ko'rsatkichdan bir necha baravar yuqori, ayrim hududlarda esa ancha past ekanligini ko'rsatadi. Bu holat kelgusida davlat-xususiy sheriklik asosidagi energetika loyihalarini hududlar o'rtasida yanada muvozanatli taqsimlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda yangi investitsiya loyihalarini kengaytirish hamda hududiy energetika infratuzilmasini kompleks rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Xulosa va takliflar

Jahon banki hisobotlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston DXSh tizimini rivojlantirishda aniq strategik yo'nalishga ega bo'lib, har bir bosqichda xalqaro tajribaga tayanmoqda. 2018-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda mamlakat DXSh bo'yicha huquqiy, institutsional va amaliy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Kelgusida esa bu tizimning barqarorligi va investorlar bilan ishonchli hamkorlikni ta'minlash asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda DXSh munosabatlari 2019-yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun asosida tartibga solinadi. DXSh munosabatlari maxsus

shartnomalar – konsessiyalar, investitsiya bitimlari, ofset shartnomalari va xizmat ko'rsatish shartnomalari orqali shakllantiriladi. DXShda hukumat, SPV/SPC (maxsus loyihalashtirish kompaniyasi), moliyaviy agentlar, qurilish va texnik xizmat ko'rsatuvchi firmalar hamda iste'molchilar asosiy ishtirokchilar sifatida qatnashadi. SPVlar DXSh loyihalarini moliyalashtirish, boshqarish va yuridik asosda amalga oshirish uchun alohida tashkil etiladi.

2019-2024-yillarda DXSh loyihalarining tarmoq tarkibi tahlili O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik siyosatining evolyutsion rivojlanishini yaqqol namoyon etadi. Dastlabki bosqichda ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va suv xo'jaligi kabi ijtimoiy yo'nalishlar ustuvor bo'lgan bo'lsa, 2023-2024-yillarda energetika, kommunal infratuzilma va transport sohaslariga yirik hajmdagi xususiy investitsiyalar jalb etilishi kuzatildi. Mazkur tendensiya "O'zbekiston-2030" Strategiyasi, shuningdek, 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati doirasida energetika xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda davlat byudjeti yukini kamaytirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarning amaliy natijasi sifatida baholanishi mumkin. Bu esa DXSh mexanizmining mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli xususiy kapitalni jalb etish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi strategik ahamiyati tobora ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekistonda energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi yirik kapital talab qiluvchi investitsiya loyihalarini amalga oshirishning eng samarali moliyalashtirish vositalaridan biriga aylanganligini ko'rsatadi. Energetika tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalarning hududlar kesimida to'planishi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, energiya xavfsizligini mustahkamlash, "yashil" energetikani rivojlantirish va 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini sezilarli darajada oshirish bo'yicha davlat strategik maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi "Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-166-son Farmoni.
2. Schmitz P.W. Public-private partnerships, asymmetric information, and incomplete contracts // *Economics Letters*. – 2025. – Vol. 256.
3. Montesinos-Sansaloni E.X., Ribeiro-Soriano D., Botella-Carrubi D. Innovation dynamics in public funding: a comparative analysis of social economy and capitalist organisations in public-private partnerships // *European Journal of Innovation Management*. - 2025. - Vol. 28. - No. 10. - P. 5255-5276.
4. Breaugh J., Hammerschmid G., Stockreiter S. The prevalence of public values in public-private partnerships for government digitalisation: A systematic review of the literature // *Government Information Quarterly*. -2025.-Vol. 42.-No. 3.
5. Raghutla C., Yeliyya K. Public-private partnerships investment in energy as new determinant of renewable energy: The role of political cooperation in China and India // *Energy Reports*. - 2023. - Vol. 10. - P. 3092-3101.
6. Sheppard G., Beck M. Transparency trade-offs in the operation of national Public-

Private Partnership units: The case of Ireland's National Development Finance Agency//Journal of Accounting and Public Policy - 2023- Vol. 42. - No. 4.

7. Иоганзен Е.Н., Шнайдер О.В., Баранцева А.А. Анализ возможностей деятельности государственно-частного партнерства в Российской Федерации//Региональная и отраслевая экономика. Экономические науки, 2024 №7(236).

8. Зубаха П.А. Основные формы государственно-частного партнерства и их применение в инфраструктурных проектах// Вестник МФЮА № 3 / 2017.

9. Xadjayeva Yu. Davlat-hususiyy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishning mohiyati, iqtisodiy ahamiyati va xususiyatlari// Jamiyat va innovatsiyalar – Society and innovations Special Issue – 4 (2021) / ISSN 2181-1415.

10. Toxirov J.R. Davlat-xususiyy sheriklikni tashkil qilish va rivojlantirishning prinsiplari va ularning ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

